

SHAXSNING EKOLOGIK HUQUQIY IJTIMOIYLASHUVI MASALALARI

Ibroxim Hakimovich ATAMIRZAEV

o'qituvchi

yuridik fanlar bo'yicha (PhD) falsafa doktori

Namangan davlat universiteti

Namangan, O'zbekiston

Annotatsiya

Maqolada yangilanayotgan O'zbekistonda aholining ekologik huquqiy ongi va ekologik huquqiy madaniyatini rivojlantirish orqali ularning ekologik huquqiy ijtimoiylashuviga erishish masalalari haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar: ekologiya, ekologik muxit, ekologik javobgarlik, strategiya, ekologik ijtimoiylashuv, ekologik huquqiy ijtimoiylashuv.

ВОПРОСЫ ЭКОЛОГО-ПРАВОВОЙ СОЦИАЛИЗАЦИИ ЛИЧНОСТИ

Иброхим Хакимович АТАМИРЗАЕВ

Преподаватель

Доктор философии (PhD) по юридическим наукам

Наманганский государственный университет

Наманган, Узбекистан

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы достижения эколого-правовой социализации населения модернизирующегося Узбекистана посредством развития у него экологического правосознания и эколого-правовой культуры.

Ключевые слова: экология, экологическая среда, экологическая ответственность, стратегия, экологическая социализация, эколого-правовая социализация.

Yangilanayotgan O'zbekistonda barcha sohalarda bo'lgani kabi ekologiya va tabiatni muhofaza qilish borasida ham keng ko'lamli ilohotlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik muvozanatning buzilishi global miqyosdagi eng dolzarb muammolardan biriga aylandi. Bu muammolar nafaqat alohida hududlar, balki butun insoniyatning barqaror rivojlanishi va kelajagi uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda.

Yangi O'zbekiston ham ushbu global ekologik muammolardan chetda emas. Mamlakatimizda sanoatning rivojlanishi, urbanizatsiya jarayonlarining

jadallashuvi, qishloq xo'jaligi faoliyatining kengayishi va boshqa omillar atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatib, ekologik vaziyatning murakkablashuviga olib kelmoqda.

Buning barobarida atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va barqaror rivojlanishga erishish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab qo'yilgan.

Shu o'rinda, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida qonunlar ijrosini ta'minlashda shaxslarning ekologik huquqiy ijtimoiylashuvi alohida ahamiyatga ega.

Shaxs – jamiyatda muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan inson. Har bir shaxs tabiiy huquqlarga, ya'ni yashash, sog'lom muhitda yashash va ekologik xavfsizlik kabi huquqlarga ega.

Ekologik huquqiy ijtimoiylashuv tushunchasi ikkita asosiy qismni o'z ichiga oladi:

Birinchisi, ekologik ijtimoiylashuv. Bunda shaxsning tabiat va atrof-muhitga nisbatan ijobiy munosabatining shakllanishi, eko-madaniyat, eko-ma'rifat va ekologik mas'uliyatni o'zlashtirishi, jamiyatdagi ekologik qadriyatlarni o'zlashtirishi hamda amalga oshirishini tushunishimiz mumkin.

Ikkinchisi, ekologik huquqiy ijtimoiylashuv. Bu – shaxsning tabiatga nisbatan huquqiy va axloqiy munosabatini shakllantirish jarayoni.

Ekologik huquqiy ijtimoiylashuv – jamiyat a'zolarining tabiatga munosabatida huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish, ularni ekologik huquqiy bilimlar bilan qurollantirish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga yo'naltirilgan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish jarayonidir.

Shaxs ekologik huquqlarini biladi va ularni himoya qiladi, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha faol ishtirok etadi, qonunlarga muvofiq ekologik muammolarga qarshi kurashadi. Shaxsning ekologik huquqiy ijtimoiylashuv jarayonini amalga oshirishda bugungi kunda O'zbekistonda davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilgan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo'lgan davrda atrof-muhitni

muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 30-oktyabr PF-5863-son Farmonida atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan.

Mazkur Farmonda belgilangan atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha davlat siyosatining bu ustuvor yo'nalishlarida tegishli tarmoqlarga atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishining oldini olish, aniqlash va ularni oldini olishning samarali usullarini joriy etish vazifasi yuklatilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 30-mart kuni BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasidagi ma'ruzasida "Bugungi kunda global miqyosda ekologik muammolar barchamizni tashvishga solmoqda", deb ta'kidlagan edi.

Ekologik xavfsizlikni kafolatlash uchun samarali xalqaro asoslarni yaratish zarur ekanligi, bu esa avvalo ekologik xavfsizlikni kafolatlash uchun milliy qonunchilik bazasini takomillashtirish zarurligini bildiradi.

O'zbekistonda ekologik qonunchilikni shakllantirish, ijro etish va nazorat qilish hozirgi zamon davlat siyosatining muhim yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

Bu borada, ekologiya sohasida qonunchilik ijrosini ta'minlash, ekologiya sohadagi haqiqiy ahvolni aniqlash va tahlil qilishni hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish eng muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

Ekologik sohada tabiatni muhofaza qilishga doir huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi korxona, muassasa, tashkilot, mansabdor shaxslar va fuqarolarning faoliyatiga alohida e'tibor qarataish lozim.

2023-yil 31-mayda qabul qilingan "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-son Farmoni bilan Tabiat resurslari vazirligi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi deb qayta nomlandi".

Mazkur farmonda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni qayta tiklash, insonning atrof-muhitga

salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha yagona davlat siyosatini amalga oshirishni o'z ichiga olgan yangi vazirlikning asosiy vazifalari belgilab berilgan.

Mazkur qonunosti xujjatlarda atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi davlat siyosatini takomillashtirish, ekologik nazoratni kuchaytirish hamda aholining ekologik huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish hamda shaxslarning ekologik huquqiy ijtimoiylashuviga qaratilgan bir qancha vazifalar yuklatilgan. Xususan, ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazish, o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini nobud qilish yoki ularga shikast yetkazish bilan bog'liq jinoyatlarni 2023-yil 1-sentabrga qadar Ichki ishlar vazirligi bilan birgalikda og'ir jinoyatlar toifasiga kiritish bo'yicha qonun loyihasini tayyorlash, O'zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi hamda chiqindilar joylashtirilganligi uchun kompensatsiya to'lovlarini belgilash va qo'llash tartibini qonun darajasida tartibga solish hamda berilgan imtiyozlarni bekor qilish kabi bir qancha vazifalar yuklatildi.

Mamlakatimizda ilk bor ekologiya sohasida qabul qilgan qonunlardan biri "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hisoblanadi. Bu Qonun 1992-yil 9 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan bir qatorda qabul qilingan bo'lib, undagi prinsip va me'yorlar tabiat bilan jamiyat munosabatlari o'zaro uyg'unlashgan holda bo'lishni taqozo qiladi".

Bugugi kunda shaxslarning ekologik huquqiy ijtimoiylashuvini ta'minlash nafaqat davlat tomonidan, balki jamiyatimizning faol ishtiroki orqali o'zining ijobiy natijasini ko'rsatadi. Chunki tabiiy muhitni himoya qilish va zarar yetkazish sohasida asosiy ijrochi bu insoniyat va ularning ehtiyoji.

Bu munosabatlar Konstitutsiya darajasida tartibga solingan bo'lib, Konstitutsiyamizning 62-moddasida nazarda tutilgan. Unda fuqarolarning atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish majburiyatining yuklatilishi so'zimiz isboti.

Shuningdek, Konstitutsiyaning 66-moddaasiga muvofiq mulkdor o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkka o'zi xohishicha egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishi ko'rsatilgan, biroq mol-mulkdan foydalanish atrof-muhitga

zarar yetkazmasligi, boshqa shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlarini hamda qonuniy manfaatlarini buzmasligi kerakligi ta'kidlangan [3].

Konstitutsiyada belgilangan majburiyatlar bilan bir qatorda fuqarolarning atrof tabiiy muhitdan tegishlicha foydalanish huquqi, "Tabiatni muhofaza qilish" to'g'risidagi qonunimizning 12-moddasida insonning yashash uchun qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqi va bu muhitni saqlab qolish borasidagi burchi aks ettirilgan.

Ekologiya huquqining asosiy manbaasi bu Konstitutsiya. Konstitutsiyamizning 10-bobida inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish masalalariga alohida to'xtalib, Konstitutsiya va qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan fuqarolarning huquqlari, jumladan, ekologik huquqlarini davlat tomonidan himoya qilinishi ta'minlanishi belgilab qo'yilgan.

Asosiy qonunimizning beshinchi bo'limida davlat hokimiyati organlari faoliyatini tashkil etishning asosiy tamoyillari belgilab berilgan bo'lib, ular atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlarni ishlab chiqish va ushbu sohadagi davlat organlari tuzilmasini shakllantirish uchun muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa, Konstitutsiyamizda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining vakolatlari belgilab qo'yilgan bo'lib, ushbu qoidalar ushbu subyektlarning ekologiya sohasidagi vakolatlarining huquqiy holatini belgilab beruvchi milliy qonunchilikni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan birlamchi ekologik-huquqiy tamoyillar mamlakatimizda barqaror rivojlanishga ko'maklashish, atrof-muhitning yaxlitligini saqlash, tabiat va aholi salomatligini asrashga qaratilgan eng ilg'or xorijiy davlatlar amaliyotiga mos keladi".

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoida va tamoyillari asosida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik huquqiy ijtimoiylashuvini ta'minlashga qaratilgan qonunlar qabul qilindi:

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi, "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi, O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonunlar, Yer kodeksi, "Davlat yer kadastri to'g'risida"gi, O'rmon to'g'risida"gi, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi, "Metrologiya to'g'risida"gi, "Standartlashtirish to'g'risida"gi, "Aholi va xududlarni tabiiy tehnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi, Gidrotexnika inshootlarining havfsizligi to'g'risida"gi, "Radiatsiya havfsizligi to'g'risidagi" qonunlar shular jumlasidan.

Ushbu qonunlarda tabiatni muhofaza qilish, tabiiy obyektlarda oqilona foydalanish va aholining ekologik huquqiy ijtimoiylashuvini ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarning maqsadi, vazifasi, obyekti va subyektlari, tabiiy resurslarning huquqiy holati, ushbu sohada jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, majburiyatlari, erkinliklari, kafolatlari va vakolatlari, qonunchilik talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlik kabi ekologik huquqiy qoida va majburiyatlar belgilangan.

Mazkur talablar belgilangan bo'lsada, bugungi kunda shaxslarda ekologik huquqiy ijtimoiylashuvi barqarorlashmasligining quyidagi sabablari mavjud.

Birinchidan, ekologik savodxonlikning pastligi;

Ikkinchidan, nazorat organlarining yetarlicha faol emasligi;

Uchinchidan, huquqiy javobgarlik choralarining sustligi.

Mazkur sabablarni ijobiy jihatdan hal etish hamda shaxslarning ekologik huquqiy ijtimoiylashuvini ta'minlash uchun quyidagi masalalarga e'tibor qatarish lozim.

Birinchidan, qonuniylikni mustahkamlash, qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

ikkinchidan, jamoatchilik, fuqarolik institutlari va ommaviy axborot vositalari bilan samarali hamkorlik qilish;

uchinchidan, qonunchilikni targ'ib qilish, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda faol ishtirok etish;

to'rtinchidan, normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmuni, mohiyati va ahamiyatini aholi hamda bevosita ijrochilarga yetkazish.

Xulosa qilib aytganda, shaxslarning ekologik huquqiy ijtimoiylashuviga erishish orqali fuqarolar tabiatni muhofaza qilishda o'z huquq va majburiyatlarini anglaydi, ekologik huquqbuzarliklarga nisbatan befarq bo'lmaydi. Fuqarolarning faqat qonunga tayanib harakat qilishi, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

Maktab, oila, OAV va jamoat tashkilotlari ekologik ijtimoiylashuvda asosiy rol o'ynaydi. Bu tizimli yondashuv orqali har bir shaxsda atrof-muhitga nisbatan mas'uliyat tuyg'usi yuzaga keladi. Shaxslarning ekologik huquqiy ijtimoiylashuvi bu faqat nazariy bilim emas, balki amaldagi faoliyat hamdir. Jamiyat a'zolarida tabiatga nisbatan huquqiy va axloqiy munosabatni shakllantirish orqali barqaror ekologik muhitni ta'minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo'lgan davrda atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabr PF-5863-son Farmoni. Lex.uz

2. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-may PF-81-son Farmoni Lex.uz.

3. Akhmedov R. Environmental Law and Prosecutorial Supervision. – London: Oxford University Press, 2018. – 147 p.